

“TALABALARDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO’LLARI”

Muxamedova Guli Baxodirovna

O`zbekiston Respublikasida Oliy va O`rta

maxsus ta`lim vazirligi pedagogik innovatsiyalar,
kasb-hunar ta`lim boshqaruv hamda pedagog kadrlarni
qayta tayyorlash va ularning malakasini
oshirish instituti 2-bosqich doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llari, kreativlik sifatlariga ega bo‘lishlari uchun o‘quv va tarbiya jarayonida yangi g‘oyalarni yaratish haqidagi fikrlar yoritib berilgan.

Kalit so`zlar: kasbiy-ijodiy faoliyat, kreativ xarakter, mutaxassis, interfaol metod.

Talaba shaxsining mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o`z mohiyatiga ko`ra tizimli ijodiy jarayon tarzida namoyon bo`ladi. Ijodkor shaxsnинг shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o`zgarishining o`zaro mos kelishi, ijtimoiy-itstisodiy shart-sharoitlar samda inson ontogenezi - tuzilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog`liq. Ma’lumki, kasbiy tajriba bilim, ko`nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, kasbiy-ijodiy faoliyat ko`nikmalarining uzlashtirilishi nafakat amaliy ko`nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chikishni, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo`lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarning yetarli darajada uzlashtirilishini talab etadi. Kreativlik (lot., ing. «create» - yaratish, «creative» yaratuvchi, ijodkor) - individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi xamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi. Ijodkor shaxsnинг shakllanishini shaxsnинг o`zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy maxsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur’ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsnинг faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, xayotiy muxim va kasbiy shartlangan xodisalarga bog`liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo`lishi taqozo etiladi. Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo`lish uning shaxsiy qibiliyatları, tabiiy va ijtimoiy quvvatini, kasbiy faoliyatni sifatlari, samarali tashkil etishga yo`naltiradi. Oliy ta`lim tizimida o`qish faoliyatida bo`lgan talabalar kreativlik sifatlariga ega bo`lishlari uchun ularda o`quv va tarbiya jarayonlarida an’anaviy yondashishdan farqli yangi g‘oyalalar xaqida fikr yuritishi, o`ziga xoslik, tashabbuskorlik talab etiladi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega bo`lajak pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg`or, talabalarning o`quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g‘oyalarni yaratishda faollik ko`rsatish, ilg`or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o`rganish, shuningdek, xamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo`lishga e’tibor qaratadi. Odatta pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo`lishlari pedagogik muammolarni xal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o`zaro ijodiy xamkorlikka erishishlari orqali ta’milnadi. Pedagog o`z-o`zidan ijodkor bo`lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o`qib-o`rganish, o`z ustida ishslash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Xar qanday mutaxassisda bo`lgani kabi bo`lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo`lishlari uchun talabalik yillarda poydevor qo`yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o`zini o`zi ijodiy faoliyatga yo`naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muxim axamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni taxlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod maxsulotlarini yaratishga alovida e’tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni xal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga

ijodiy yondashishi unda xissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o`z oldiga muammoli masalalarni qo`yish orqali mavjud bilimlari va xayotiy tajribalariga zid bo`lgan dalillar bilan to`qnash keladi. Buning natijasida o`z ustida ishlash, mustaqil o`qib o`rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potensialini yanada rivojlantiradi. Talaba shaxsning kreativligi uning tafakkuri, muloqoti, xis-tuyg`ulari, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo`ladi. Aytib o`tilganidek, barcha shaxslarda bo`lgani kabi bo`lg`usi pedagoglarda xam kreativlik sifatlari o`z-o`zidan rivojlanmaydi. Shunga ko`ra kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning bir qator yo`llari mavjud:

1-yo'l: kreativ mahsulot (ishlanma)lardan foydalanish. Bu yo`lni tutishda pedagog ta`lim oluvchilarga Power Point dasturi yoki multimedya yordamida taqdimotni yaratish topshirig`ini berishi mumkin. Taqdimotni tayyorlash jarayonida ta`lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko`nikmalari faol rivojlanadi. Ta`lim oluvchilar o`zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to`la namoyon qilishlari mumkin. Agar ta`lim oluvchilarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash qo`rquv hissi mavjud bo`lsa, fikrni noto`g`ri ifodalashdan hadiksirasalar, tanqidga uchrasalar bunday vaziyatda ularda kreativ fikrlash ko`nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo`lmaydi. Ta`lim oluvchilarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko`nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin. Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko`nikmalarini baholashdaqo`llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi.

2-yo'l: amaliy kreativ fikrlash ko`nikmalarini rivojlantirish. Pedagoglar ta`lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko`nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ko`rsatmali metod va usullardan foydalanadi. Bu o`rinda savollardan foydalanish faqat qisqa muddatda yordam berishi mumkin, biroq, ta`lim oluvchilarda interfaollik va kirishimlilikni rivojlantirmaydi. Patti Drapeau o`z asarida bir qator ta`lim oluvchilarda interfaollik va kreativ fikrlash ko`nikmalarini rivojlantirishda samarali bo`lgan yo`l va metodlarni keltirib o`tadi.

Xususan: -Veb-saytlar bilan ishslash;

-vizuallashtirish;

-barcha nuqtai nazarlarni inobatga olish; -muhim g`oyalarni turli vaziyatlarda va o`rinli qo`llash (g`oyani boshqa sharoitga ko`chirish –transformatsiya); -ramziylashtirish kabi yo`llar; -“Aqliy hujum”; -“Keys-stadi” kabi metodlar.

Talabalarda kreativlikni rivojlantirish ta`lim mazmunini o`zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o`zlashtirish darjasи, ta`lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o`qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi. Bunda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi: talabalarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta`lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta`minlash;

talabalarda ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish, talabalar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g`oyalarni bag`rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o`quv jarayonidagi faolligini ta`minlash, har bir talabada uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faoliyklarini muntazam rag`batlantirish;

o`quv jarayonini talaba shaxsining xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish; talabalarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishslash ko`nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undash; kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo`lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg`ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq etish.

Talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillar:

-kreativ fikrlash ko`nikmalarini rivojlantirish, kreativ faoliyatlari shakllantirish, o`quv jarayonini izlanuvchilik hamda muammoli tadqiqotchilik yo`nalishlarini kuchaytirish;

-talabalarning muammolarni ijodiy yechish va yaratuvchilik faoliyatlarini rivojlantirish vaziyatlarini tashkil etish;

-talabalarning kreativ faoliyat tajribasiga kasbiy zaruriyat va istiqboldagi kasbiy faoliyat mazmunining tarkibiy qismi sifatida yondashishlariga erishish;

-talabalarning kasbiy ko'nikma va layoqatlarini rivojlantirish jarayonini interfaol metodlar va texnologiyalar ustida ishlash asosida rivojlantirishga yo'naltirish, ularda mustaqil ijodiy faoliyat ko'rsatish, mustaqil bilim olish, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini bilish, o'z mavqeiga ega bo'lish, talabalarning mustaqil ishlash layoqatlarini faollashtirish, bu jarayonda ularning kreativ fikrlashlariga erishish;

-talabalarning kreativ layoqatlarini namoyon qilishlari uchun qulay ijodiy hamkorlik muhitini vujudga keltirish kabilardan iboratligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarning pedagogik ehtiyojlari, qiziqishlari, alohida ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlarini tizimli tarzda o'rganish, bunda ularning kreativ faoliyatni tashkil etishida uchraydigan kontrsuggestiv, tezaurus va interaksion baryerlarning bartaraf etishning samarali yo'llarini belgilash lozim. Shuningdek, talabalarning kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g'oyalari, konsepsiylar hamda ilg'orpedagogik tajribalar asosida o'qitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunli-faoliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Talabalarning kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish asosida ulardag'i ixtisoslashgan ya'ni pedagogik kreativlik kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, bunda zamonaviy axborotkomunikatsiya texnologiyalari, innovatsion strategiyalar, interfaol ta'lif metodlari va texnologiyalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. БашинаТ.Ф., ИльинЕ.П. Психологиятворчества, креативности, одаренности. –СПб.: Питер, 2009. –с.
2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). –Alexandria –Virginia, USA: ASCD, 2014. –p. 4.
3. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: ped.f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtoreferati. -T.: 2017, 39 b
4. Muslimov N.A. "Bo'lajak kasb ta'lim o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish" /Monografiya. - T.: Fan, 2004.
5. Muslimov N.A. "Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy komponentligini shakllantirish texnologiyasi" /Monografiya. -T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.
6. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). - Alexandria - Virginia, USA: ASCD, 2014.
7. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot". -T.: "Fan", 2005.
8. Sayidahmedov N. "Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya". - T.: 2003.